



REALIYALAR VA ULARNING TARJIMADAGI AHAMIYATI

Axmedova Muxayyo Tadjimuhamadovna,

ASIFL o'qituvchi

Anvarov Abdullo, ASIFL talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada realiyalar tushunchasi va ularning tarjimashunoslikdagi ahamiyati yoritiladi. Realialarni tarjima qilishda yuzaga keladigan asosiy muammolar — ekvivalentlik, milliy koloritni saqlash va ma'no yo'qotish holatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, realialarni tarjima qilishning asosiy usullari misollar asosida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: realiyalar, tarjima muammolari, ekvivalentlik, milliy kolorit, madaniyatlararo aloqa, tarjima usullari, tavsifiy tarjima, transliteratsiya.

Аннотация: В этой статье рассматривается понятие реалий и их значение в переводоведении. Анализируются основные проблемы, возникающие при переводе реалий — случаи эквивалентности, сохранения национального колорита и утраты смысла. Анализируются основные проблемы, возникающие при переводе реалий — случаи эквивалентности, сохранения национального колорита и утраты смысла.

Ключевые слова: реалии, проблемы перевода, эквивалентность, национальный колорит, межкультурная коммуникация, стили перевода, аналитический перевод, транслитерация

Abstract: This article examines the concepts of realias and their significance in translation studies. The main problems that arise in the translation of realias are analyzed — cases of equivalence, preservation of national flavor and loss of meaning.

Key words: realias, translation issues, ekuivalence, national identity, cross-cultural communication, style of translation, analytical translation, transliteration



Tarjimashunoslikda *realiya* tushunchasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu atama bolgar olimlari **G. Vlahov va S. Florin** tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ularning ta’kidlashicha, realiyalar — bu muayyan xalqning tarixiy, ijtimoiy, madaniy hayotiga xos bo‘lgan va boshqa tillarda to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmagan leksik birliklardir. Olimlar realiyalarni “milliy koloritni ifodalovchi, tarjimada alohida yondashuvni talab qiladigan so‘z va birikmalar” sifatida baholaydilar.

Realiyalar nafaqat til hodisasi, balki madaniy-lisoniy birlik hisoblanadi. Ular xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, an‘analari, tarixiy tajribasi va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi. Shu sababli realiyalarni tarjima qilish jarayonida faqat lingvistik emas, balki madaniy omillarni ham hisobga olish zarur.

V. N. Komissarov realiyalarni “madaniy axborot tashuvchi leksik birliklar” deb ataydi va ularning tarjimasi tarjimonning madaniyatlararo kompetensiyasiga bevosita bog‘liq ekanini ta’kidlaydi.

O‘zbek tilida realiyalar xos so‘zlar bo‘lib, ular ishlatilish maydoniga muvofiq turlanadi. Xalqning kundalik hayoti, ovqatlanish madaniyati, kiyim-kechagi, uy-ro‘zg‘or buyumlari bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalaydigan tarjima ekvivalentiga ega bo‘lmagan realiyalar milliy-maishiy realiyalar turiga kiradi. Masalan: *palov*, *kimono*, *samovar*. Ushbu realiyalar milliy o‘ziga xoslikni eng aniq aks ettiruvchi birliklar hisoblanadi.

Tarixiy realiyalar ma’lum bir tarixiy davrga xos bo‘lgan tushunchalarni ifodalaydi. Ular jamiyatning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aks ettiradi: *feodalizm*, *xonlik*, *gladiator*. Bunday realiyalar ko‘pincha zamonaviy til tizimida faol ishlatilmaydi. Ular ma’lum bir konsept yoki maydonda o‘sha fan miqiyosida ishlatiladi.

Geografik realiyalar muayyan hududga xos joy nomlari, tabiiy obyektlar va iqlim bilan bog‘liq tushunchalarni o‘z ichiga oladi: *steppe*, *tundra*, *savanna*. Bu realiyalar tarjimada ko‘pincha transliteratsiya yoki izoh orqali beriladi.



Davlat tuzumi, siyosiy lavozimlar, ijtimoiy institutlarga oid tushunchalarni qamrab olgan: *parlament, senator, boyar* soʻzlar ijtimoiy-siyosiy realiyalar deb aytiladi.

Realiyalar koʻpincha ekvivalentga ega boʻlmagan leksik birliklar sirasiga kiradi. L. S. Barkhudarov taʼkidlashicha, ekvivalentli birliklar boshqa tilda toʻliq yoki qisman mos keluvchi tarjima variantiga ega boʻladi, realiyalar esa aksariyat hollarda bunday imkoniyatdan mahrum.

Oʻzbek olimlaridan B.Bahritdinov realiyalar tarjimasining bevosita va bilvosita tarjimadagi farqlarni ochib bergan

Realiyalar xalqning urf-odatlarini, turmush tarzi va tarixiy tajribasini aks ettiradi. Tarjima jarayonida ushbu madaniy axborotni yoʻqotmasdan yetkazish murakkab vazifa hisoblanadi. V. N. Komissarovning fikricha, tarjimon nafaqat tillararo, balki madaniyatlararo vositachi sifatida ham faoliyat yuritishi lozim. Aks holda realiya mazmuni oʻquvchi uchun tushunarsiz boʻlib qoladi.

Realiyalar matnning milliy ruhini belgilaydi. Agar tarjimon realiyani umumiy yoki neytral birlik bilan almashtirsa, asarning madaniy rang-barangligi yoʻqoladi. A. V. Fedorov milliy koloritni saqlash tarjimaning estetik va kommunikativ qiymatini oshirishini taʼkidlaydi.

Realianing maʼnosi koʻpincha kontekst orqali ochiladi. Agar kontekst notoʻgʻri talqin qilinsa, realiya mazmuni buziladi. Komissarov taʼkidlashicha, realiyalar tarjimasida stilistik moslikni saqlash ham muhim omil hisoblanadi.

Masalan, Abdulla Qahhorning “Anor” asarida “Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagining yengi zulfinga ilinib tirsakkacha yirtildi.” – gapini inglizchaga tarjima qilganda “yaktak” soʻzi “new brend shirt”- deb tarjima qilingan. Aslida “yaktak” soʻzi yevropaliklarning “shirt”iga mos kelmaydigan alohida ust kiyim.

Tahlillar asosida realiyalarni tarjima qilishda ekvivalentlikning mavjud emasligi, milliy koloritni saqlash, kontekst va adresat omilini hisobga olish eng



muhim muammolar ekanligi aniqlandi. Realialarni noto‘g‘ri yoki soddalashtirib tarjima qilish matnning mazmuniy va estetik qiymatini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun tarjimon har bir realiyaga individual yondashib, transliteratsiya, tavsifiy tarjima, izoh berish kabi usullarni vaziyatga mos ravishda qo‘llashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, realiyalar tarjimasi tarjimashunoslikning dolzarb va murakkab masalalaridan biri bo‘lib, u tarjimonning professional mahorati va madaniyatlararo kompetensiyasini yaqqol namoyon etadi. Ushbu tadqiqot natijalari realialarni tarjima qilishda samarali yondashuvlarni belgilashga xizmat qiladi hamda tarjimashunoslik amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vlahov G., Florin S. **Непереводимое в переводе.** — Moskva: Международные отношения, 1980.
2. Komissarov V. N. **Современное переводоведение.** — Moskva, 1999.
3. Barkhudarov L. S. **Язык и перевод.** — Moskva: Международные отношения, 1975.
4. Fedorov A. V. **Основы общей теории перевода.** — Moskva, 1983.
5. Bahrotdinov B “Realia in direct and indirect translation”. Scientific journal of the Ferghana State University. Volume 2. № 1/2019
6. Axmedova, M., & Maxmudova, G. (2024). TARJIMADA IBORALARNING EKVIVALNETLIGI. XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR, 1(1), 182-183.
7. AXMEDOVA, M. (2024). TARJIMADA USLUB VA O‘RTA TARJIMANING TA’SIRI. *News of the NUUz*, 1(1.6. 1), 281-284.
8. Muxayyoxon Axmedova “Tarjimada uslub masalalari”. Andijon -2024
9. F.Рахимов “Таржима назарияси ва амалиёти”. Тошкент 2016